

4. Котов П.Ф., Иванов Н.Н. и Кондаков Н.А. Многолетние травы. В кн.: Резервы укрепления кормовой базы. Воронеж. 1966.

5. Лукина Н.И. Образцы люцерны, перспективные для селекции на качество. Ж. Селекция и семеноводство. Москва, № 1, 1992: с.40-42.

6. Рашидов Т.Р., Сыдык-Ходжаев Р.Т., Аллакулиев Б.Ж. Беда селекцияси ва уруғчилиги. ЎзР “Фан” нашриёти, Тошкент, 2010: 150 в. (монография).

UO‘K: 675.68.678

CHO‘L OSIMLIKLARINI SHO‘RLANISHNI OLDINI OLISHDAGI AHAMIYATI

L.S.Ortiqova-dotsent,

E.R.Oripova-magistr

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada cho‘l o‘simlilar bioekologiyasi, cho‘lda o‘suvchi o‘simliklarning biologik moslanishlari, cho‘l o‘simliklarning yem –hashak xususiyatlari va ozuqabopligi dala sharoitida tajribada o‘rganish.

Kalit so‘zlar: cho‘l, cho‘llanish, o‘simlik, yem- hashak, urug‘, tur, turkum

Abstract. In this article, bioecology of desert plants, biological adaptations of desert plants, forage and nutritional properties of desert plants are studied in field conditions.

Key words: desert, desertification, plant, fodder, seed, species, genus

O‘zbekistonda bugungi vaqtda cho‘l hududlarini rivojlantirish, undagi tabiiy resurslardan to‘g‘ri, oqilona va samarali foydalanish maqsadi qo‘yilgan ekan, cho‘l geo majmualarining mavjud imkoniyatlarini taxlil qilish va baxolash, dolzarb muammolarni aniqlash va ularni ilmiy va amaliy asosda xalq etish yo‘llarini ishlab chiqish muhimdir. Shuning uchun xam mamlakatimiz cho‘l hududlarini geografik nuqtai nazardan tatqiq etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi ekologiya va kamayib borayotganligi muammosi jiddiy tus olgan ayni paytda cho‘l hududining tabiiy resurslari bo‘lmish tuproq va o‘simliklarni ham kerakli turlaridan unumli foydalanish, iloji boricha uni manzarali tarzda qo‘llash ayni muddao bo‘lar edi.

Hozirgi kunda dunyoning 75 mamlakatning cho‘l mintaqasida iqlim sharoitlarni keskin o‘zgarishi oqibatida qumli cho‘llarni degradatsiyaga uchrashi hamda tuproqlarni sho‘rlanish darajasi ortib, minglab gektar maydonlarning ekologik holati yomonlashiga olib kelmoqda. Birgina Afrika va Janubiy Osiyodagi mamlakatlarda 183 mln gektar maydon turli darajada sho‘rlangan. Bundan tashqari, cho‘l mintaqasi yaylovlaridan tartibsiz foydalanish natijasida o‘simlik qoplamining muhim ozuqabop turlari kamayib, payhon bo‘lmoqda, ularning hosildorligi hamda biologik xilma-xilligi pasaymoqda. Dunyo cho‘l mintaqasidagi qishloq xo‘jaligi amaliyotida galofitlardan keng foydalanishda, degradatsiyaga uchragan cho‘l yaylov maydonlarini qayta tiklash hamda istiqbolli, yuqori oqsilli galofitlarni tanlab yetishtirishdan iborat. Iqlimning global o‘zgarishida galofitlarning tabiiy florasidan foydalanish, ularni genplazma asosida tanlash, kolleksiyasini shakllantirish, kolleksion namunalarni baholash hamda galofit buta, yarim buta va o‘tchil ekotip, mahsuldorlik va ekologik chidamli bo‘lgan turlarni tanlash, ularni yetishtirishning yuqori samarali texnologiyasini qo‘llash orqali o‘simliklarning ozuqabopligiga erishish mumkin. Respublikamizda keyingi yillarda Qizilqum cho‘lining sho‘rlangan tuproqlari holatini yaxshilash va shu mintaqaga mos, chorvachilik uchun yuqori ozuqabop fitomassa (pichan) to‘plashga qodir, yangi to‘yimli galofit turlarini tanlash hamda ularni yetishtirish agrotexnologiyalarini yanada takomillashtirish borasidagi ilmiy izlanishlar dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Aholining go‘sht va go‘sht mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda har yili chorva bosh sonini oshirish zarur. Biroq, ozuqa yetishmasligiga

barham bermay turib, ushbu masalani hal qilib bo'lmaydi. Yaqin yillargacha chorvachilikning rivojlanishi o'zlashtirilmagan yaylovlarni o'zlashtirish hisobiga bo'lgan bo'lsa, endi buning iloji yo'q. Bir qator olimlarning fikricha (Noviskiy, 2017; Raximov va boshqalar, 2011), mazkur yaylovlarda o'simliklar qoplamini boyitish, yangilash, ularni kengaytirish evaziga chorvachilikni rivojlantirish hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekiston florasida yangi yem-xashak, ozuqabop, manzarali o'simliklar introduksiyasi tufayli boyitilib, o'simlik turlarining umumiy soni 4500 tadan oshib ketdi. Mazkur turlardan to'yimlilik va yeyilish (iste'mol qilinishi) xususiyatiga ega bo'lgan va chorva mollar tomonidan yeyilishi uchun yaroqli hisoblangan turlarni yetishtirib, yem-xashak muammosini bartaraf etish va ozuqabop ekinlar hosildorligini kamida 6-7 tonna ozuqa birligiga yetkazish ta'minlanishi kerak (Umirzoqov, 2017). Jahonda 2000-2500 turdan ortiq galofit o'simliklar mavjud bo'lib, Markaziy Osiyo tabiiy florasida ularning 700 turdan ortig'i qayd qilingan (Akjigitova, 1982). Dunyo florasida galofitlarning 120 oila, 550 turkum, 2000 dan ortiq turi mavjud bo'lib, eng ko'p turdagi galofitlar asosan 10 ta oilaga – Chenopodiaceae (370 tur), Poaceae (137 tur), Asteraceae (69 tur), Plumbaginaceae (57 tur), Aizoaceae (53 tur), Cyperaceae (49 tur), Papilionaceae (46 tur), Tamariceae (46 tur), Areaceae (28 tur), Zygophyllaceae (27 tur) taalluqli (Shamsutdinov, 2006). Cho'l mintaqasi o'simlik qoplamini hayotiy formalar va turlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Masalan, Mavlyanovning (1973) olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, Qarnabcho'l florasida 238 tur gulli o'simliklar qayd etilgan. Bu o'simlik turlari 138 turkumga mansub bo'lib, shulardan 216 turi o'tchil o'simliklar (90,8%), 12 turi yarim butalar (5,0%) va 10 turi (4,2%) buta o'simliklardir. Yaylov ekotizimida bir yilda o'sadigan o'simliklar massasidan to'liq foydalanish mumkin emas, bunda yaylov ekotizimining barqarorligi buziladi (Boboqulov, Ismailov va boshqalar, 2011). O'rta Osiyo sharoitida yaylovlarda o'sadigan o'simliklar fitomassasidan bir yilda 60-70%gacha foydalanish mumkin (Ismailov va boshqalar, 2011). Sho'rlangan maydonlarning meliorativ holatini yaxshilash respublikamiz dehqonchiligi uchun dolzarb muammo bo'lib, uni ijobiy hal qilishda galofit o'simliklar muhim o'rin tutadi. Chunki galofit o'simliklarning hujayralaridagi osmotik bosimning (50-80 atm) yuqoriligi sho'r suvda erigan mineral moddalarni o'zlashtirib olish imkonini beradi (Ubaydullaev, 2006). Yaylov chorvachiligi rivojlangan mamlakatlarda – Xitoy, Mo'g'liston, Avstraliya, AQSh, Jazoir, Misr, Tunis, Kichik va O'rta Osiyo, Qozog'iston mamlakatlarida sassiq sho'ra-Salsola soryosma, ilmoq sho'ra - Bassia hyssopoides, itsegek-Anabasis brevifolia, izen-Kochia prostrata, chumchuq sho'ra-Salsola passeriana, Avstraliyada tarqalgan buta shaklidagi ko'p yillik olabuta turlarining ozuqaviy ahamiyatlari juda katta (Shegay, 1973; Shoaib Ismail, 2006). Yuqorida keltirilgan ilmiy manbalar tahlilidan ma'lum bo'lishicha, sho'rlangan yaylovlar holatini yaxshilash borasida ularning botanik tarkibini boyitish, istiqbolli cho'l ozuqabop turlardan foydalanish, boshqa ekologik muhitlardan farq qiluvchi fitomeliorant o'simlik turlarini tanlash va tegishli samara beruvchi tadbirlar tizimini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Sho'rlanish yuqori sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash jarayoniga jiddiy xavf tug'diradi. Butun dunyo bo'ylab sho'rlanish o'simliklar hosildorligini kamaytiruvchi asosiy omil bo'lib, iqtisodiy va ekologik rivojlanishga to'sqinlik qiladi; sho'rlanish natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy ta'sirlar asosan tuproq hosildorligining pasayishi bilan bog'liq. Tuproqning sho'rlanishi dunyoning katta hududlarida tuproq degradatsiyasi yuzaga keltiradigan asosiy tahdidlaridan biridir. Bu salbiy ta'sir tuproqning ko'plab ekologik va noekologik xususiyatlarida kuzatilishi mumkin. Ekinlarning sho'rlanishga chidamliligini yaxshilash uchun turli xil tadbirlar qo'llash mumkin, jumladan ionlarni chiqarib tashlash, osmotik bardoshlik va to'qimalarga bardoshlik kiradi. O'simliklardagi tuzga chidamlilik o'simlik rivojlanishiga ta'siri, osmotik moslashuv va suv ta'siridagi o'zgarishlar kabi funksional va strukturaviy moslashuvlarning ishtiroki bilan izohlanishi mumkin. Tajribalar *T. tetragonioides* tuproq sho'rlanishini kamaytiruvchi xususiyatiga ega tur ekanligini ko'rsatdi. Sho'rga chidamli ekinlarni yetishtirish sho'rlangan tuproqlarda yaxshi natija beradi. Issiqxonada o'simliklarni

yetishtirishda tuproqdagi foydali ozuqa moddalarining yuqori o'zlashtirilishi, barqaror iqlim sharoiti, tabiiy yog'ingarchilikni salbiy ta'sirini yo'qligi va tuz to'planishini nazorat qilish bilan ajralib turadi. Issiqxona sanoatida tuproqdagi ozuqa moddalari mavjudligini va sho'rlanish holatini aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Portulak (*Portulaca oleracea* L.) ko'p miqdorda foydali antioksidant vitaminlar va minerallarni o'z ichiga olgan tuzga chidamli bir yillik o'simlik hisoblanadi. Shorlanish portulakning o'sishi va mineral tarkibiga ta'siri (*P. oleracea* L.) o'rganilgan. *P. oleracea* sho'rlanishga chidamli, ionlarni (400–500 kg ga - 1 NaCl) kamaytirishga qodir va sho'rlanish darajasi yuqori bo'lgan tuproqda o'stirilishi mumkin. Ildiz zonasidagi sho'rlanish holati o'simliklarning tuproqdan namlikni so'rib olishiga to'sqinlik qiladi, chunki tuproq suvida osmotik potensial rivojlanishi, tuzlarning mavjudligi tufayli o'simliklarda kechadigan transpiratsiyani kamaytiradi va shu bilan hosildorlikka ta'sir qiladi. Shu sababli, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sho'rlangan tuproqlarda galofit turlarining samaradorligini baholash - sho'rlanishning o'simliklarning o'sishi va biomassasiga ta'sirini, shuningdek, sho'rlanish kamaytirish qobiliyatini tahlil qilishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Акжигитова Н.И. Галофитная растительность Средней Азии и её индексионные свойства. –Ташкент, “Фан”, 1982.С.
2. Boboqulov N.A., Ismailov M.Sh., Popova V.V., Aripov U.X. va boshq. Qorako'l qo'ylarni oziqlantirishning samarali, resurslarni tejovchi texnologiyasi.–Samarqand, 2011. В
3. Исмаилов М.Ш., Бобоқулов Н.А., Абдурахмонов А.К. Уровен кормления молодняка каракульских овец. //Республика чорвачилигини ривожлантириш ва соҳада озукa базасини мустаҳкамлашнинг устувор вазифалари. Илмий-амалий конференция. – Тошкент, 2011. –Б. 49-52
4. Рахимов Т.Б., Бобоқулов Н.А., Попова В.В. Пастбищное кормление и подкормка при разном физиологическом состоянии каракульских овец //Республика чорвачилигини ривожлантириш ва соҳада озукa базасини мустаҳкамлашнинг устувор вазифалари. Илмий-амалий конференция. –Тошкент, 2011. –Б. 72-75.
5. Ubaydullaev Sh.R. Sho'rlangan yerlarni biomelioratsiyalashda galofit o'simliklarning o'rni //O'zbekiston janubida fermerlikni rivojlantirish muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruzalar to'plami. –Qarshi, 2006. –В. 13-14.
6. Umirzoqov A.U. Yangi yem-xashak ekinlari yetishtirishning ilmiy asoslari /Monografiya. –Samarqand, 2017. 232.

УДК: 631.352

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ПУСТЫННЫХ ПАСТБИЩ

С.И. Мамаджанов-к.т.н., доцент¹

С.А.Хазиев-базовый докторант

***Ташкентского филиала Самаркандского Государственного Университета
ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии¹***

Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства²
salavattabi@mail.ru

Аннотация. В статье представлен обзор по заготовке грубых кормов на сено для не выпасного сурового зимнего периода каракульским овцам, а также анализ проводимых исследований по укусу стеблей пустынно-кормовых растений и оценке показателя «качества среза» являющимся как одним из основных оценочных критериев при испытании экспериментального лезвия ножа роторного режущего барабана косилки-копнителя. Повреждения растений чревато с их гибелью, что пагубно отражается на экологию, так как это приводит к деградации пастбищ.